



IJTIMOY HIMOYA SOHASIDA NATIJAGA YO‘NALTIRILGAN BUDJETLASHTIRISH TIZIMINI JORIY ETISH MASALALARI

ISSUES OF IMPLEMENTING A RESULTS-BASED BUDGETING SYSTEM IN THE SOCIAL PROTECTION SECTOR

¹Nurmuxamedova
Barno Ismailovna

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
“Moliya va moliyaviy texnologiyalar” kafedrası dotsenti.
ORCID: 0009-0001-4396-3718, E-mail: b.nurmukhamedova@tsue.uz

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Maqolada aholini ijtimoiy himoya qilish sohasida natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirish tizimini joriy etishning nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi ikki yilda qabul qilingan me‘yoriy-huquqiy hujjatlar tahlil qilinib, ijtimoiy himoya tizimini moliyaviy ta‘minlashda ularning ahamiyati ochib berilgan. Ijtimoiy himoyaga yo‘naltirilgan xarajatlarni samarali boshqarish, budjet mablag‘laridan maqsadli foydalanish va ijtimoiy himoya dasturlarining natijadorligini oshirish masalalari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijasida ijtimoiy himoya sohasida natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirishni joriy etishdagi mavjud muammolar aniqlanib, ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Eng. - The article examines the theoretical and practical aspects of implementing a results-based budgeting system in the field of social protection. In particular, the study analyzes the regulatory and legal acts adopted in the Republic of Uzbekistan over the last two years and reveals their significance for the financial provision of the social protection system. The issues of effective management of social protection expenditures, targeted use of budget funds, and enhancement of the effectiveness of social protection programs are considered. As a result of the research, the existing challenges in implementing results-based budgeting in the social protection sector were identified, and scientifically grounded proposals and recommendations were developed.

Kalit so‘zlar: Keywords:

❖ *ijtimoiy himoya moliyasi, davlat budjeti, natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirish, ijtimoiy himoya xarajatlari, majburiy ijtimoiy kafolatlar, ijtimoiy yordamni moliyalashtirish, moliyaviy ta‘minlash, samaradorlik, yagona ijtimoiy reyestr.*

❖ *social protection finance, state budget, results-based budgeting, social protection expenditures, mandatory social guarantees, financing of social assistance, financial provision, efficiency, unified social registry.*

Kirish.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish davlat siyosatining

ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Kambag‘allikni qisqartirish, aholining ijtimoiy muhofazaga muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash hamda ijtimoiy xizmatlar sifatini

oshirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ijtimoiy xizmatlar va ijtimoiy yordamning qonunchilikda belgilangan tartibda ko'rsatilishini ta'minlash, aholining ijtimoiy zaif qatlamlarini qo'llab-quvvatlash hamda ushbu sohaga davlat budjetidan va boshqa manbalar hisobidan ajratilgan mablag'larni aniq yo'naltirish bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Bu jarayonda davlat budjeti mablag'laridan samarali foydalanish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Sohani an'anaviy budjetlashtirish tizimida davlat xarajatlari odatda jarayonlarga yo'naltirilgan bo'lib, mablag'larning natijadorligiga yetarlicha e'tibor qaratilmagan. Shu bois, ijtimoiy himoya sohasini moliyaviy ta'minlashda budjet mablag'larini aniq natijalar bilan bog'lashni nazarda tutuvchi natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish (NYB) tizimini joriy etish zarurati yuzaga kelmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Ilmiy doiralarda "natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish" masalalari keng o'rganilgan. Masalan, Qosimovanning maqolasida budjet amaliyotidagi maqsadli-dasturli rejalashtirish va natijaviylikka yo'naltirilgan budjetlashtirish uslubining mohiyati, uning afzalliklari hamda ijtimoiy soha xarajatlarini budjetlashtirishda mazkur texnologiyadan foydalangan davlatlar tajribasi o'rganilgan. Uning fikricha, natijaviylikka yo'naltirilgan budjetlashtirish texnologiyasini budjetni shakllantirish va ijro etishning zamonaviy shakli deb aytish mumkin. Mazkur texnologiya budjet xarajatlari va ushbu xarajatlardan kutiladigan samara o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni, budjet xizmatlarini ko'rsatish bilan erishilgan natijani hamda ularning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi va natijadorligini ifodalaydi [1].

Po'latov o'z maqolasida natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish hozirgi kunda yetakchilik qilayotgan smetali budjetlashtirishdan farqli ravishda xarajatlarni

aniq maqsadlarga yo'naltirgan dasturiy usulda davlat budjeti mablag'laridan foydalanish, budjet mablag'larini bosh tasarruf qiluvchilar hamda oluvchilar faoliyatining ijtimoiy ahamiyatga ega, miqdor jihatdan o'lchash imkoniyati mavjud bo'lgan natijalarga yo'naltirilishi va ayni vaqtda aniqlangan maqsadlar hamda natijalarning amalga oshirish jarayonini monitoring qilish imkoniyatlarini yaratuvchi tizim ekanligini ta'kidlaydi [2].

Primova "natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish" tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradi: "Natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish – bu strategik rejalashtirish, budjetlashtirish, yakuniy natijalarni baholash, shuningdek budjet tizimlarining samarali faoliyat ko'rsatish amaliyotini baholash va taqqoslashni o'zida mujassam etgan natijaga yo'naltirilgan tizim bo'lib, u budjet mablag'larining belgilangan tartibda taqsimlanishini davlat siyosatining maqsad va ustuvor yo'nalishlariga mosligini ta'minlaydi" [3].

Sherjonovning ta'kidlashicha, natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish tizimini joriy etish bir tarafdin miqdor jihatidan oson bo'lsa, boshqa tomondan, ya'ni sifat jihatidan murakkab hisoblanadi. Natijaga yo'naltirilganlik muayyan xarajatning natijasi bo'lishinigina anglatib qolmasdan, avvalo shu faoliyatning maqsadlarini aniqlashni nazarda tutadi. Bu orqali soha va uning asosiy maqsadlari aniqlanadi hamda shu maqsadlarga erishish uchun infratuzilmani yaratish zarur bo'ladi. Bunday tahlillar natijasida soha va tarmoqlar faoliyatining o'zaro "kesishma"lari ko'zga tashlanadi [4].

Natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish tizimi haqida fikr yuritir ekan, Fayzullayev yozadi: "Usulda inobatga olinadigan asosiy tamoyillar maqsadni belgilashga e'tibor qaratish, natijadorlik (samaradorlik), shaffoflik va hisobdorlikdan iboratdir. NYBni joriy etishdan maqsad muhim ijtimoiy natijalarga erishishda budjet resurslaridan maksimal foyda olishni ta'minlashdir. NYBning asosiy

afzalligi rejalashtirilgan va foydalanilayotgan budjet xarajatlarining natijadorligini ularning mamlakatda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning maqsad va ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi nuqtai nazaridan aniqlash hisoblanadi" [5].

Yuqoridagi tadqiqotlarni o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, mualliflar o'z ilmiy ishlarida natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish tizimining mazmun-mohiyati, uning an'anaviy xarajatlarga asoslangan budjetlashtirishga nisbatan afzalliklari, budjet mablag'larining natijadorligi va samaradorligini baholashdagi xususiyatlarini tadqiq etganlar hamda tegishli xulosalarni shakllantirganlar. Qosimova esa, xususan, butun ijtimoiy sohalarni budjetdan moliyalashtirishda natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirishni tatbiq etish imkoniyatlari va shart-sharoitlarini o'rgangan.

Biroq aynan ijtimoiy himoya sohasida natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish tizimini joriy etishning nazariy, tashkiliy va ilmiy masalalari alohida tadqiqot predmeti sifatida yetarli darajada o'rganilmagan. Bayon etilganlardan kelib chiqib, biz tomonidan "ijtimoiy himoya sohasida natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish" tushunchasiga quyidagi ta'rif ishlab chiqildi: ijtimoiy himoya sohasida natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish – davlatning turli manbalar hisobidan aholining ijtimoiy himoyasiga mo'ljallangan xarajatlarini ijtimoiy himoyaning strategik maqsadlari va aniq natijalari bilan bog'lashga qaratilgan boshqaruv usuli bo'lib, ushbu tizimda davlat mablag'larining nafaqat maqsadli sarflanishi, balki ularning qay darajada ijtimoiy-iqtisodiy natija berishi ham muhim hisoblanadi.

Ijtimoiy himoya sohasida mazkur yondashuv quyidagi imkoniyatlarni yaratadi [6]:

ijtimoiy yordamni ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlari va alohida shaxslarga manzilli yetkazish;

ijtimoiy himoyaga yo'naltirilgan davlat resurslaridan samarali foydalanish;

ijtimoiy himoya dasturlarining natijadorligini baholash;

aholi ijtimoiy himoyasi uchun mas'ul bo'lgan davlat organlari faoliyatining shaffofligini ta'minlash.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda ijtimoiy himoya sohasida natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish tizimini o'rganishda analiz va sintez, induksiya va deduksiya, qiyosiy hamda statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Shuningdek, me'yoriy-huquqiy hujjatlar tahlili asosida sohadagi islohotlar baholandi. Tizimli yondashuv usuli orqali ijtimoiy himoyani moliyaviy ta'minlash samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar aniqlandi hamda mantiqiy umumlashtirish usuli yordamida tegishli xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

So'nggi yillarda mamlakatda davlat moliyasini boshqarish va ijtimoiy himoya tizimini isloh qilishga qaratilgan qator muhim me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-82-son Farmoni bilan davlat tomonidan aholini manzilli himoya qilishning asosiy yo'nalishlari belgilangan va ularning qatorida "aholining ijtimoiy sug'urta mexanizmlari bilan qamrab olinishini kengaytirish" nazarda tutilgan [7].

Yuqoridagi Farmonning tegishli bandini bajarish, shuningdek, "Davlat ijtimoiy sug'urtasi tizimini takomillashtirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash orqali aholini og'ir hayotiy vaziyatlarda moddiy qo'llab-quvvatlash, shuningdek, rasmiy bandlikni rag'batlantirish va mehnat bozori barqarorligini oshirish maqsadida" [8] 2026-yil 1-yanvardan boshlab davlat ijtimoiy

sug'urtasining yangi tizimi joriy etildi. Unga ko'ra, fuqarolar davlat ijtimoiy sug'urtasi bilan majburiy va ixtiyoriy asoslarda qamrab olinadi.

Majburiy asoslarda – O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti to'g'risidagi Qonun bilan miqdori (stavkasi) belgilanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining bir qismi hisobidan qamrab olinadi. Masalan, 2026-yil uchun 1-yanvardan boshlab jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha soliq stavkasining 0,2 foiz bandi Ijtimoiy himoya milliy agentligining Davlat ijtimoiy sug'urta jamg'armasiga sug'urta badali sifatida yo'naltiriladi [9].

Ixtiyoriy asoslarda esa fuqaro tomonidan mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 5 foizi miqdoridagi har oylik sug'urta badalining eng kam miqdorini to'lash evaziga qamrab olinadi. Ya'ni, fuqaro mehnatga haq to'lashning eng kam

miqdorining 5 foizi miqdoridan ko'proq summada ham Davlat ijtimoiy sug'urta jamg'armasiga sug'urta badalini to'lab borishi mumkin.

Fuqarolarga davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha to'lovlar ularning minimal sug'urta staji va to'lagan sug'urta badaliga mutanosib ravishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligining Davlat ijtimoiy sug'urta jamg'armasi orqali amalga oshiriladi.

Sug'urtalangan shaxslar, ularning sug'urta staji va badallari hisobini yuritish, davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha to'lovlarni tayinlash va to'lash jarayonlari "Raqamli hukumat" tizimining idoralararo integratsiyalashuv platformasi orqali olinadigan ma'lumotlar asosida Ijtimoiy himoya milliy agentligining axborot tizimida amalga oshiriladi.

1-jadval

Ijtimoiy himoya sohasida natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirishning asosiy tarkibiy elementlari*

Nº	Natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish elementlari	Mazmuni	Kutilayotgan natija
1	Maqsadlarni belgilash	<i>Ijtimoiy himoya dasturlarining aniq maqsadlarini ishlab chiqish</i>	<i>Mablag'lardan samarali foydalanish</i>
2	Natija ko'rsatkichlarini joriy etish	<i>Faoliyat samaradorligini baholovchi indikatorlarni belgilash</i>	<i>Dasturlar natijadorligini oshirish</i>
3	Monitoring va baholash	<i>Mablag'larning maqsadli sarflanishini nazorat qilish</i>	<i>Shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytirish</i>
4	Resurslarni taqsimlash	<i>Natijalarga qarab budjet mablag'larini taqsimlash</i>	<i>Moliyaviy samaradorlikni oshirish</i>
5	Hisobot tizimini takomillashtirish	<i>Natijalar bo'yicha muntazam hisobotlarni yuritish</i>	<i>Boshqaruv qarorlarining sifatini yaxshilash</i>

***Manba:** muallif tomonidan World Bankning natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish va davlat moliyasini boshqarish konsepsiyalariga oid materiallari asosida tuzildi.

Hozirda Davlat ijtimoiy sug'urta jamg'armasi orqali proaktiv (davlat xizmatlarining fuqaroni murojaatisiz, avtomatik tarzda amalga oshirilishi) shaklda quyidagi ijtimoiy yordam turlari tayinlanadi va to'lanadi:

2026-yil 1-yanvardan boshlab homiladorlik va tug'ish nafaqasi;

2026-yil 1-iyuldan boshlab vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik nafaqasi;

2030-yil 1-yanvardan boshlab fuqarolarning murojaatlari asosida ishdan bo'shatish nafaqasi.

Yuqorida fuqarolarga davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha to'lovlar ularning minimal sug'urta stajiga asoslanib amalga oshirilishi qayd etildi. Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha to'lovlarni hisoblashda sug'urta staji sifatida 2026-yil 1-yanvarga qadar turli davrlarda Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi

budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga to'langan sug'urta badallari, yagona ijtimoiy to'lov hamda ijtimoiy soliq to'langan davrlar inobatga olinadi.

2026-yilda davlat ijtimoiy sug'urta tizimi bilan quyidagi qatlamlarni qamrab olish rejalashtirilgan:

budjet tashkilotlarida ishlovchi qariyb 2,2 mln nafar;

xususiy sektorda band bo'lgan 3,6 mln nafardan ortiq;

yakka tartibdagi tadbirkorlar, o'zini o'zi band qilgan hamda norasmiy sektorda faoliyat yurituvchi 7 mln nafardan ortiq fuqarolar.

Ijtimoiy sug'urta jamg'armasi faoliyatining raqamli ma'lumotlarini tahlil qilish shundan dalolat beradiki, 2026-yil yanvar oyida homiladorlik va tug'ish nafaqasi bo'yicha 10,7 mingta kasallik varaqasi kelib tushgan. Shundan 9 mingtasi yoki 84 foizi bo'yicha 103,5 mlrd so'm miqdorida nafaqalar tayinlangan. 1,7 mingta (16 foiz) holatda esa fuqarolar rasmiy band bo'lmaganligi yoki sug'urta staji yetarli emasligi sababli nafaqa tayinlash rad etilgan [10].

Shunday qilib, bugungi kunda Davlat ijtimoiy sug'urtasi tizimi aholini ijtimoiy himoya qilish hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, u ijtimoiy himoya sohasida natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirishning amaldagi ifodasi sifatida ham xizmat qiladi.

Ijtimoiy himoya tizimini moliyaviy ta'minlashda natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish (NYB)ning joriy etilishi bir qator ijobiy natijalarni ta'minlaydi:

ijtimoiy himoyaga turli manbalardan, ayniqsa davlat moliyaviy resurslari hisobiga yo'naltirilgan mablag'larning manzilliligi ta'minlanadi; ijtimoiy yordam haqiqiy ehtiyojmand qatlamlarga yo'naltiriladi, bu esa resurslar samaradorligini oshiradi;

ijtimoiy himoyaga yo'naltirilgan budjet mablag'larining samaradorligi va natijadorligiga erishiladi; budjet mablag'lari sarfining natijalari doimiy monitoring qilinadi,

bu esa ortiqcha xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi;

ijtimoiy himoya tadbirlarini amalga oshiruvchi davlat ijroiya organlari faoliyati hamda ularni saqlash bilan bog'liq xarajatlarning shaffofligi va hisobdorligi ta'minlanadi; davlat organlari faoliyati aniq ko'rsatkichlar asosida baholanadi;

natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish ijtimoiy dasturlarning aniq natijalarga erishishini ta'minlab, kambag'allikni qisqartirishga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy himoya sohasida natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish tizimini joriy etish davlat mablag'laridan samarali foydalanish, ijtimoiy yordamning manzilliligi oshirish hamda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv budjet xarajatlarini nafaqat sarflangan mablag'lar hajmi bilan, balki erishilgan ijtimoiy natijalar bilan ham baholash imkonini beradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini modernizatsiya qilish doirasida davlat ijtimoiy sug'urtasi tizimining joriy etilishi ijtimoiy himoya sohasida natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirishning amaliy ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Yangi tizim ijtimoiy sug'urta mexanizmlarini kengaytirish, aholining turli qatlamlarini qamrab olish, ijtimoiy to'lovlarni raqamlashtirish hamda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish jarayonlarining shaffofligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, ijtimoiy himoya sohasida NYBni to'liq joriy etishga to'sqinlik qilayotgan bir qator muammolar ham mavjud. Jumladan, natijadorlik indikatorlarining yetarli darajada shakllantirilmaganligi, statistik ma'lumotlar bazasining cheklanganligi, davlat xizmatchilari tahliliy salohiyatining yetarli emasligi, axborot tizimlari integratsiyasidagi muammolar hamda

ijtimoiy himoya xarajatlarini kompleks boshqarish mexanizmining to'liq shakllanmaganligi ushbu tizim samaradorligini cheklamoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

ijtimoiy himoya sohasida natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirishni joriy etish uchun yagona samaradorlik va natijadorlik indikatorlari tizimini ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish;

ijtimoiy himoya dasturlarining natijalarini baholashga xizmat qiluvchi statistik va tahliliy ma'lumotlar bazasini takomillashtirish;

ijtimoiy himoya sohasida faoliyat yurituvchi davlat xizmatchilari uchun natijaga yo'naltirilgan boshqaruv, monitoring va baholash bo'yicha maxsus o'quv dasturlarini tashkil etish;

ijtimoiy himoyaga oid axborot tizimlari va davlat organlari ma'lumotlar bazalarining

integratsiyasini chuqurlashtirish hamda raqamli platformalar imkoniyatlaridan keng foydalanish;

ijtimoiy himoya xarajatlarini rejalashtirish va monitoring qilishda yagona budjet yondashuvini shakllantirish orqali moliyaviy resurslar taqsimotining samaradorligini oshirish;

ijtimoiy himoya dasturlarini moliyalashtirishda natijalarga erishish darajasini asosiy baholash mezonini sifatida belgilash hamda jamoatchilik uchun ochiq hisobdorlik mexanizmlarini kengaytirish.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy himoya sohasida natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish tizimini bosqichma-bosqich va kompleks ravishda joriy etish davlat mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish, ijtimoiy xizmatlar sifati va qamrovini kengaytirish, aholi farovonligini yuksaltirish hamda mamlakatda ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qosimova G.A. Natijaviylikka yo'naltirilgan budjetlashtirish – ijtimoiy sohani boshqarish va moliyalashtirishni takomillashtirish texnologiyasi. *Iqtisod va moliya* / 2019, 11(131), 51-bet.
2. Pulatov D.X. Natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirishni O'zbekiston Respublikasida joriy etish imkoniyatlari va o'ziga xos xususiyatlari. *Ilm-fan va innovatsiya ilmiy-amaliy konferensiyasi*, 45-bet.
3. Primova N.I. Natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish konsepsiyasini amalga oshirishda samaradorlikni aniqlash. *"Raqamli iqtisodiyot"* ilmiy-elektron jurnali, 7-son, 706-bet.
4. Sherjonov Sh.A. Ijtimoiy himoya tizimini yaxshilashda budjet mablag'lari natijaviylikini ta'minlash yo'llari. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil ilmiy elektron jurnal*, 2023-yil, oktabr, 269-bet.
5. Fayzullayev Ya. Natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish tizimi. O'zbekistonda qo'llanilishi haqida. *Iqtisodiy sharh*, 1-37-2025, 52-bet. Manba: <https://review.uz/oz/post/natijaga-yonaltirilgan-byudjetlashtirish-tizimi>
6. Нурмухамедова Б.И. Финансовые аспекты социальной защиты населения в Узбекистане // *Moliya, pul va kredit*. – 2025. №5/272-278 b.. – Manba: <https://mpkjournal.com/index.php/MPK/article/view/109>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-noyabrdagi "Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha to'lovlarni tayinlash va to'lash tizimini takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-206-son Farmoni. Manba: O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (lex.uz): <https://lex.uz/docs/7813695>
8. Nurmuhamedova B.I. Ijtimoiy himoya sohasini moliyaviy ta'minlashning tashkiliy-huquqiy asoslari. *"Moliyaviy texnologiyalar"* ilmiy elektron jurnali, 2025-yil, I-son. <https://zenodo.org/records/15021781>
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining '2026-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-388-son Qarori. Manba: <https://lex.uz/docs/7959569>
10. <https://ihma.uz/oz/oi/social-insurance/social-insurance-news/davlat-ijtimoiy-sugurta-jamgarmasi-nafaqalar-tayinlanishi-va-qamrov-korsatkichlari>